



quvvatlash, adabiy jarayonni faol yuritish borasida jonbozlik ko’rsatib, o’zbek millatini o’z tilida madh etuvchi ijodkorlarni ko’payishiga yordam berdi.

Xulosa

Hamid Olimjon ayni ijodining cho’qqisi, umrining eng gullagan davrida erta xazon bo’lgan bo’lsa-da, uning biz avlodlariga qoldirgan ijodiy merosi o’zbek adabiyoti rivojida katta burilish yasadi. U qisqa umri davomida shoir, dramaturg, tarjimon va jamoat arbobi sifatida salmoqli mehnat qildi. Ayniqsa, mustaqillikka erishganimizdan keyin shoir nomi abadiylashtirildi. Uning nomiga ko’chalar, maktablar, adabiy mukofotlar ta’sis etildi. Buni ham o’zbek shoiriga bo’lgan bir ehtirom sifatida ko’rishimiz mumkin. Bu orqali xalqimiz, kelajak yosh avlodlar qalbiga shoir nomi muhrlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamid Olimjon. Tanlangan asarlari. – Toshkent, 1954.
2. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – T.: “O’qituvchi”, 1995.
3. Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. – T.: Sharq, 1998.
4. Hojiahmedov A. She’r san’atlarini bilasizmi? – T.: Sharq, 2001.
5. O’rmonjonov Azizbek Muhammadjon o’g’li. (2025). INKLYUZIV TA’LIMNING MOHIYATI, MAQSADI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI. (2025). Kelajak o’qituvchisi - Kelajak Bunyodkori, 1(2), 701-710.
6. Tursunov Ramziddin Abdixalil-o’g’li. (2025). JAMIYAT HAYOTIDA IJTIMOIIY ONG VA MA’NAVIYAT UYG’UNLIGI. TA’LIM VA TARAQQIYOT, 4(4), 324-330.

QO‘QON XONLIGIDA ELCHILARNING DINIY-MA‘NAVIY SALOHIIYATI VA TASHQI SIYOSATDAGI ROLI

Abdurahmonov Zuhridin Holdorali o‘g‘li
Namangan Impuls tibbiyot instituti o‘qituvchisi
E-mail: abdurahmonovzuhridin9495@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda Qo‘qon xonligida elchilarni tayinlashdagi diniy-ma’naviy mezonlar, elchilarning axloqiy sifati, ulamo va eshonlarning tashqi siyosatdagi faol roli, diniy asoslar va siyosiy topshiriqlarning uyg‘unligi ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Xususan, Dastur ul-muluk, Tarixi Aliquli amirlashkar, va Usmonli arxiv hujjatlari asosida elchilik institutining ijtimoiy-diniy yuki tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon xonligi, elchilik, diniy salohiyat, siyosiy topshiriq, Dastur ul-muluk, eshonlar, tashqi siyosat, axloqiy mezon.

THE RELIGIOUS AND SPIRITUAL COMPETENCE OF AMBASSADORS IN THE KHANATE OF KOKAND AND THEIR ROLE IN FOREIGN POLICY

Abdurahmonov Zuhridin Holdorali ogli
Lecturer at Namangan Impulse Medical Institute
E-mail: abdurahmonovzuhridin9495@gmail.com

Abstract: This thesis explores the religious and moral criteria for appointing ambassadors in the Kokand Khanate, their ethical qualities, and the active role of scholars (*ulama*) and spiritual leaders (*eshons*) in foreign affairs. Based on sources such as *Dastur al-Muluk*, *Tarikh-i Alikulī Amir Lashkar*, and Ottoman archival documents, the paper analyzes the socio-religious significance of the embassy institution and the interrelation between religious principles and political missions.

Keywords: Kokand Khanate, diplomacy, religious competence, political mission, *Dastur al-Muluk*, *eshons*, foreign policy, ethical standards.

РЕЛИГИОЗНО-ДУХОВНЫЙ ПОТЕНЦИАЛ ПОСЛОВ В КОКАНДСКОМ ХАНСТВЕ И ИХ РОЛЬ В ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ

Абдурахмонов Зухриддин Холдарали угли
Преподаватель Наманганского медицинского института «Импульс»
E-mail: abdurahmonovzuhridin9495@gmail.com



Аннотация: В данной тезисе рассматриваются религиозно-нравственные критерии назначения послов в Кокандском ханстве, их моральные качества, а также активная роль улемов и эшонов во внешней политике. На основе таких источников, как «Дастур ул-мулук», «Тарихи Аликули амирлашкар» и османских архивных документов, анализируется социально-религиозная нагрузка института посольства, взаимосвязь между религиозными основами и политическими поручениями.

Ключевые слова: Кокандское ханство, посольство, религиозный потенциал, политическое поручение, *Дастур ул-мулук*, эшоны, внешняя политика, нравственные критерии.

Kirish

Qo‘qon xonligi diplomatiyasi an‘anaviy sharqona siyosiy madaniyat va islomiy e‘tiqod asosida shakllangan bo‘lib, elchilar nafaqat siyosiy, balki diniy vakillik yukini ham o‘z zimmasiga olganlar. Elchilik lavozimi – xalq oldidagi ishonchli vakil va Alloh huzuridagi javobgar inson sifatida qaralgan. Shu bois, xonlik siyosatida diniy-ma‘naviy salohiyatga ega shaxslarning elchilikka tayinlanishi muhim mezon bo‘lgan.

Asosiy qism

Elchi tanlash mezonlarida diniy fazilatlar ustuvorligi

Qo‘qon xonligida elchilikka tayinlanadigan shaxslar bilimli, halol, hushyor va dinga sodiq bo‘lishi kerak edi. Dastur ul-mulukda quyidagicha yoziladi:

“Elchi har qanday sharoitda ogoh bo‘lmog‘i, yolg‘on so‘zlamog‘i, el orasida shubha uyg‘otmasligi kerak” [1]. Diniy fazilatlar bilan birga, xalq orasidagi obro‘ ham muhim mezon bo‘lgan. Shu bois, ulamo, eshon va madrasa bitiruvchilari elchilikka tanlangan.

Diniy lavozimdagi elchilar – ismlar va faoliyati

Qo‘qon tarixiy manbalarida diniy shaxslarning elchilik faoliyati aniq ismlar bilan qayd etilgan. Xususan:

- Abulqosim eshon – islomiy bilimda yetuk, xalq orasida obro‘li eshon bo‘lib, diplomatik topshiriqlarni ado etish uchun tavsiya etilgan.
- Ali Akbar hoji naqib – diniy lavozim egasi, hushyor va vakillik salohiyatiga ega elchi sifatida tanlangan. Bu haqda Muhammad Yunusjon *Tarixi Aliquli amirlashkarda* yozadi:

“Ali Akbar hoji naqib, Abulqosim eshon singari kishilar elchilikka tavsiya etildilar, chunki ular xalq ishonchini qozongan, diniy bilimda yetuk va hushyor edilar” [2].

Usmonli imperiyasiga yuborilgan diniy elchi: Muhammad Zohid xo‘ja

Qo‘qon xoni Muhammad Alixon davrida Usmonli imperiyasiga yuborilgan elchi – Muhammad Zohid xo‘ja bo‘lib, u ham diniy shaxslar qatoriga kiradi. U bilan birga Qur‘oni karim, shol, ipak, otlar va boshqa peshkashlar yuborilgan [3]. Muhammad Zohid xo‘janing diniy salohiyati, Istanbulda musulmon olimlari bilan muloqoti va peshkash tarkibidagi Qur‘on – bu elchilikning diniy-siyosiy yo‘nalishda olib borilganini tasdiqlaydi.

Elchilarning siyosiy topshiriqlari va diniy mas‘uliyati

Qo‘qon elchilari savdo yo‘llarini ochish, musulmon savdogarlar huquqlarini himoya qilish, do‘stona aloqalarni mustahkamlash kabi vazifalar bilan bir qatorda diniy mafkurani ham himoya qilganlar. Tursunxo‘ja Naizaxo‘jin boshchiligidagi Rossiyaga elchilar musulmon savdogarlar manfaatlarini himoya qilish haqida petisiya taqdim etganlar [4]. Bu elchilarning siyosiy topshiriqlari islomiy qadriyatlar bilan uyg‘un yuritilganini ko‘rsatadi.

Elchilikka tayinlashda shayx va eshonlar maslahatining roli

Qo‘qon diplomatik an‘analarida elchilar tayinlanishidan oldin diniy shaxslarning, jumladan shayx va eshonlarning maslahatlari olinishi mumkin bo‘lgan. Ba‘zi holatlarda elchilik oldidan bata yoki duo olinib, elchiga Allohning himoyasi tilangan.

Bu esa elchilikning nafaqat siyosiy, balki diniy muqaddas vazifa sifatida qaralganini bildiradi.

Xulosa

Qo‘qon xonligi diplomatiyasida elchilik diniy-ma‘naviy jihatdan yuksak baholangan lavozim bo‘lib, elchilar davlat tashqi siyosatini nafaqat siyosiy, balki islomiy axloq asosida olib borganlar. Abulqosim eshon, Ali Akbar hoji naqib, Muhammad Zohid xo‘ja kabi diniy shaxslarning elchilikka jalb qilinishi bu institutning islomiy asosda shakllanganidan dalolat beradi. Shunday qilib, Qo‘qon elchilari musulmon davlat sifatida o‘zining diniy siyosiy manfaatlarini uyg‘unlashtirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Termiziy Xoja Samandar. *Dastur ul-muluk*. – Toshkent: Sharq, 2008. – 128 b. – B. 42–43.



2. Muhammad Yunusjon. *Tarixi Aliquli amirlashkar*. – Qo‘qon: 1870 (nashr: 2015). – B. 19.
3. Topildiev N. *Qo‘qon xonligi diplomatiyasi*. – Toshkent: Fan, 2021. – B. 92–96.
4. Murodov A. tarj. *Usmonli arxiv hujjatlari*. – Istanbul: QKMB, 2019. – B. 49.

O‘ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O‘QITISHDA INTERAKTIV METODLARNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Xabibullayeva Shoiraxabibullayevna
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini o‘qituvchisi
E-mail: _shoiraxabibullayeva@gmail.com
ORCID: <https://ORCID:0009-0006-9326-5199>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilini o‘qitishda interaktiv metodlardan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Interaktiv yondashuvlar ta’lim jarayonida o‘quvchi faolligini oshirishi, mustaqil fikrlashni rivojlantirishi va kommunikativ kompetensiyani shakllantirishi ta’kidlanadi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion metodlar asosida o‘qitishning amaliy natijalari tahlil qilinadi hamda o‘quv jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: interaktiv metodlar, o‘zbek tili, ta’lim texnologiyalari, kommunikativ kompetensiya, innovatsion yondashuv.

APPROACHES TO ENHANCING THE EFFECTIVENESS OF INTERACTIVE METHODS IN TEACHING THE UZBEK LANGUAGE

Annotation: This article examines the effectiveness of interactive methods in teaching the Uzbek language. It highlights how interactive approaches increase learners’ engagement, foster independent thinking, and develop communicative competence. The paper also analyzes the practical outcomes of using modern technologies and innovative teaching methods, offering recommendations for their implementation in the educational process.

Keywords: interactive methods, Uzbek language, educational technologies, communicative competence, innovative approach.

ПОДХОДЫ К ПОВЫШЕНИЮ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ПРЕПОДАВАНИИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы повышения эффективности обучения узбекскому языку с применением интерактивных методов. Подчеркивается, что интерактивные подходы способствуют активизации учащихся, развитию самостоятельного мышления и формированию коммуникативной компетенции. Также анализируются практические результаты использования современных технологий и инновационных методов обучения, предлагаются рекомендации по их внедрению в образовательный процесс.

Ключевые слова: интерактивные методы, узбекский язык, образовательные технологии, коммуникативная компетенция, инновационный подход.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, dars jarayonlarini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Prezident Sh. Mirziyoyevning: “Ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish – yangi O‘zbekiston taraqqiyotining eng muhim omilidir”, degan fikri ta’lim jarayonida innovatsion yondashuv va interaktiv metodlarning ahamiyatini yanada oshirdi. Zamonaviy o‘qitish jarayoni endilikda bilimni tayyor shaklda berish emas, balki o‘quvchini mustaqil fikrlashga, izlanishga, muloqotga va amaliy faoliyatga yo‘naltirishni talab etmoqda.

Til o‘qitish sohasida, ayniqsa o‘zbek tili fanini o‘rgatishda interaktiv metodlardan foydalanish o‘quvchi shaxsini faollashtirish, uning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish va ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. A. A. Avliyoqulov o‘z tadqiqotlarida interaktiv